



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



XORIJJIY TILLARNI O‘RGATISHDA LISONIY-MADANIY YONDASHUV: NAZARIY ASOSLAR VA PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR

Shoira Kutbiddinova

*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika
instituti o‘qituvchisi*

Sabina Abdurahimova

*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika
instituti talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada xorijiy tillarni o‘rgatishda lisoniy-madaniy yondashuvning nazariy asoslari, o‘qitish jarayoniga tatbiqi va uning samaradorligini oshirish yo‘llari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida milliy va xorijiy tillarni o‘qitishdagi madaniy va lingvistik asoslar o‘zaro bog‘liq holda ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, talabalarning madaniyatlararo kompetensiyasini shakllantirish uchun innovatsion usullardan foydalanish yondashuvining samarasi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: lisoniy-madaniy yondashuv, xorijiy tillarni o‘rgatish, madaniyatlararo kompetensiya, pedagogik innovatsiyalar.

Annotation: This article examines the theoretical foundations of the linguocultural approach in teaching foreign languages, its application in the educational process, and ways to enhance its effectiveness. The study explores the interconnectedness of cultural and linguistic foundations in teaching both national and foreign languages. Additionally, it analyzes the effectiveness of using innovative methods in shaping students' intercultural competence within this approach.

Keywords: linguocultural approach, teaching foreign languages, intercultural competence, pedagogical innovations.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические основы лингвокультурного подхода в обучении иностранным языкам, его применение в образовательном процессе и пути повышения его эффективности. В исследовании изучается взаимосвязь культурных и лингвистических основ при обучении как национальным, так и иностранным языкам. Кроме того, анализируется эффективность использования инновационных методов для формирования межкультурной компетенции студентов в рамках данного подхода.

Ключевые слова: лингвокультурный подход, обучение иностранным языкам, межкультурная компетенция, педагогические инновации.

Globallashuv jarayonida xorijiy tillarni o‘rgatish ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Biroq, tilni faqat lingvistik vosita sifatida o‘rgatish uni to‘liq anglash uchun yetarli emas. Shuning uchun, xorijiy tillarni o‘qitishda lisoniy-madaniy yondashuvni qo‘llash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarda nafaqat





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



lingvistik bilimlarni, balki madaniy qadriyatlarni tushunish orqali madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishni maqsad qiladi.

Maqolaning maqsadi – lisoniy-madaniy yondashuvning xorijiy tillarni o‘rgatishdagi o‘rni va ahamiyatini tahlil qilish hamda ta’lim jarayonida qo‘llash uchun ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Til va madaniyat bir butunlikni tashkil etadi. Til orqali madaniyat ifodalanadi, madaniyat esa tilning mazmunini shakllantiradi. Ingliz tilidagi “When in Rome, do as the Romans do” kabi iboralar faqat tilning lingvistik qonuniyatlarini emas, balki ushbu xalqning madaniy qadriyatlarini ham aks ettiradi. O‘zbek tilida esa “Do‘st kuldirar, dushman – yig‘latadi” kabi maqollar milliy mentalitet va qadriyatlarni ifodalaydi.

Madaniyatlararo kompetensiya – bu shaxsning boshqa madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish qobiliyatidir. Ushbu kompetensiyani shakllantirish xorijiy tillarni o‘rgatish jarayonining asosiy vazifalaridan biridir. Lisoniy-madaniy yondashuv o‘quvchilarda bu ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Ta’lim jarayonida avtentiq matnlar, videofilmlar va audio yozuvlardan foydalanish o‘quvchilarga real kommunikativ konteksti his qilish imkonini beradi. Masalan:

- Filmlar: “Pride and Prejudice” kabi madaniyatni aks ettiruvchi filmlarni ko‘rish va tahlil qilish.
- Adabiyot: Milliy va xorijiy folklor va she’riy namunalarni solishtirish orqali til va madaniyatni tushunish.

O‘quvchilarni madaniy kontekstda muhokama qilishga undash uchun “mehmono‘stlik”, “do‘konlarda xarid qilish” kabi mavzularda muloqot mashqlarini tashkil qilish tavsiya etiladi. Bu usul talabalarni real hayotiy holatlarga tayyorlaydi. Har bir darsda o‘rganilayotgan til sohiblarining urf-odatlari va qadriyatlarini o‘rgatish orqali talabalarning qiziqishi oshiriladi. Masalan, ingliz va o‘zbek bayramlarini qiyoslash orqali farqlarni aniqlash.

Lisoniy-madaniy yondashuv xorijiy tillarni o‘rgatishda talabalarning nafaqat lingvistik bilimlarini, balki madaniy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu yondashuvning muvaffaqiyati dars jarayoniga innovatsion usullarni tatbiq etish orqali ta’milnadi.

Xorijiy tillarni o‘rgatishda til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni hisobga olish zarurligi ta’kidlanadi. Tilni o‘rganish faqat grammatika yoki lug‘atni yodlash emas, balki o‘rganilayotgan tilga xos madaniy, ijtimoiy va tarixiy jihatlarni tushunishni ham anglatadi. Lisoniy-madaniy yondashuv, tilni o‘rgatish jarayonida talabalarga nafaqat til, balki o‘rganilayotgan tilga xos madaniyat, urf-odatlari, qadriyatlar va hayot tarzi haqida ma’lumot beradi. Bu esa talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Lisoniy-madaniy yondashuv asosida xorijiy til o‘qitishni yanada samarali qilish uchun metodikalarni yanada rivojlantirish zarurati mavjud. Ayniqsa, o‘quv materiallarini va darslarni modernizatsiya qilish, madaniy kontekstlarni ko‘proq tatbiq etish, shuningdek, talabalarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda yondashuvlarni ishlab chiqish





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



muhimdir. Tadqiqot davomida to‘plangan materiallar asosida yangi metodik qo‘llanmalar, o‘quv dasturlari va o‘qitish texnologiyalarini yaratish uchun imkoniyatlar mavjud.

Lisoniy-madaniy yondashuv xorijiy til o‘rganish jarayonini boyitadi va talabalarga til o‘rganishda faqat grammatik qoidalarni emas, balki o‘rganilayotgan tilning madaniy jihatlarini ham o‘zlashtirish imkoniyatini beradi. Bu yondashuv talabalarning tilni chuqur va to‘liq o‘rganishlariga yordam beradi. Shu bilan birga, xorijiy tillarni o‘rgatishda madaniy yondashuvni qo‘llashni yanada rivojlantirish uchun yangi texnologiyalarni integratsiyalash, metodikalar va o‘qitish usullarini yangilash zarur. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning til o‘rganish motivatsiyasini kuchaytiradi va amaliy kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Vereshagin E.M., Kostomarov V.G. *Til va madaniyat*. Moskva, 1980.
2. Brown H.D. *Principles of Language Learning and Teaching*. Pearson Education, 2007.
3. G‘ulomov I. *Leksikologiya va lingvokulturologiya asoslari*. Toshkent, 2015.
4. Byram M. *Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence*. Multilingual Matters, 1997.
5. Savignon S.J. *Communicative Competence: Theory and Classroom Practice*. McGraw-Hill, 2002.

